

## RIVOJLANISH MARKAZLARIDA “KITOB BILAN DO’STLASHAMIZ”, “KITOB TARIXI” HAFTA MAVZUSIDA O’YINLI TA’LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Nazarova Muxlisa Husnidin qizi

Buxoro pedagogika kolleji

Fan Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini  
tashkil etish o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, rivojlanish markazlarida “kitob bilan do’stlashamiz”, “kitob tarixi” hafta mavzusida o’yinli ta’lim faoliyatini tashkil etish haqida so’z yurutilgan.

**Kalit so’zlar:** maktabgacha yoshdagi bolalar, kitobxonlik, kitobga muhabbat, bolalar xarakteristikasi, psixologiya, tarbiyachi, bolalar.

**Abstract:** In this article, it is discussed about the organization of game-based educational activities in development centers on the theme of "making friends with books", "book history" week.

**Key words:** children of preschool age, reading, love of books, characteristics of children, psychology, educator, children.

**Аннотация:** В данной статье речь идет об организации игровой образовательной деятельности в развивающих центрах на тему «Дружить с книгами», недели «Истории книги».

**Ключевые слова:** дети дошкольного возраста, чтение, любовь к книге, особенности детей, психология, воспитатель, дети.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo’lgan qiziqishni uyg’otish o’z navbatida psixologiya, bolalar xarakteristikasini bilmay turib amalga oshmaydi. Chunki har bir bola o’z shaxsiyat va dunyo qarashga ega. Shaxs kamoloti va uning taraqqiy etishida psixologiyaning o’rni beqiyosdir. Shuning uchun ham bolalarni kitob o’qishga qiziqtirishda psixologiya eng asosiy omil hisoblanadi. Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma’naviy xislatlarga ega bo’lishi, umumiy va kasb madaniyati, ziyorligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog’lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas’uliyatni his eta bilishi lozim.

Tarbiyachilik kasbiga xos psixik holatlar va xarakter maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining o’ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashning psixik asoslari va qonuniyatları haqida bilim, ko’nikma va malakalar berishdan va ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo,,lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F.Les Gaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo,,lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqeа va hodisalarni tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar. Agar tarbiyachi kitobni ovozli o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga tartib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin orqali voqeа va hodisalarni, kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko'rgan eshitgan, o'qigan narsalardagi holatlarni, kishilarni, hayvonlarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratadilar va ularga o'z munosabatlarini bildiradilar. Bu yoshdagi bolalarni o'zlarini o'rabi turgan muhit, tabiat va undagi hayvonlar, o'simliklar qiziqtiradi.

Shuning uchun ham ular o'z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma-xil savollarga ko'mib tashlaydilar. Endi ular voqeа va hodisalarga boshqacha ko'z bilan qaraydilar, voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar. "Nima uchun qaroqchi bo'ladi?", "Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi?", "Nima uchun qor yog'adi?" va boshqa savollar bilan kattalarga murojaat qiladilar. Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o'sishida, o'qitish va tarbiyalashda o'ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishini talab etadi.

**Ta'limiy maqsad:** Bolalarni kitob tarixi bilan tanishtirish, turli janrdagi kitoblar va turli xildagi qog'ozlar haqida tushuncha berish. Mustaqil fikrlab, lug'at boyligini o'stirish va kichik hikoyalar tuzish. Faol muloqotga kirishish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Bolalarda kattalar mehnatiga nisbatan hurmat xissini uyg'otish. Kitobdagi qaxramonlarning hatta-harakatiga qarab ularga baho bera olish. Qiynalganlarga ko'mak berish xislarini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Bolalarga kitob bilan do'stlashish, kitobga bo'lgan mehr, uni avaylash va qadrlash xislarini, o'qish va yozishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish. Qo'l motorikasini, rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** Mavzuga oid suratlar, multimedia qurilmalari, Har xil turdag'i qog'ozlar(A4 formatdagi oq qog'oz, rangli va karton qog'ozlar, qum qog'oz, shildiroq qog'oz, bosma qog'ozlar, hojatxona qog'ozi), qalamlar, flomaster, elim, ip, suv, choy qoshiq va likopcha va salfetka, keraksiz bo'lgan bo'yaladigan kitobcha(raskraska)ning rangli rasmlari, qaychi.

### Faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** Bolalar kayfiyattingiz yaxshimi? Keling siz bilan bir o'yin o'ynaymiz. O'yin qoidasini tushuntiraman. Avvalo qizlar va o'g'il bolalar alohida 2ta doira xosil qilamiz. Kichik doiradagi qizlar birma-bir ijobjiy ertak qaxramonlari nomlarini, o'g'il bolalar esa salbiy ertak qaxramon nomlarini aytishib, qo'l ushlagan xolda zanjir xosil sqiladilar. Qayta aytgan yoki 3gacha sanaguncha ayta olmagan bola o'yinni tark etadi. Kelishdikmi?

**Bolalar:** Ha.

**Tarbiyachi:** O'yin yoqdimi?

### Bolalar:

Tarbiyachi bugungi o'yin faoliyat mavzusi bilan bolalarni tanishtiradi va til va nutq markazi, fan va tabiat markazi, san'at va syujetli-rolli markazlarda faoliyat olib borilishi haqida ma'lum qiladi. Bolalar til va nutq markazida rasmlarga izoh berib, kartochkalar yordamida kichik hikoya yoki ertak to'qiydilar, ilm-fan va tabiat markazida qog'oz xususiyatlari bilan amaliy ish, tajriba o'tkaziladi, san'at markazida kitobcha yasaladi, syujetli-rolli markazda esa "Kitob do'konii" jamoaviy o'yin tashkil etiladi. Tarbiyachi: Endi xoxishlaringizga kura markazlarga bo'lining.

Bolalar istaklariga ko'ra markazlarni tanlaydilar.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda bolalarni kitobxonlikka, kitob o'qishga qiziqtirishda psixologiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki psixologiyaning qator metodlari orqali bolalarning kitobxonlik ko'nikmalarini shakllatirishning samaradorligi turli tajriba va tadqiqot ishlari tomonidan aniqlangan

Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir. Bolalik yoshdan maktabgacha davrga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy psixologik o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi. Uning o'yinlari, xatti-harakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi.

Ikkinchidan, bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi. Uchinchidan, bola maktabgacha yoshga o'tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o'sib kamol topishniga ta'sir etmay qolmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning holatini o'rganish dolzarb masala hisoblanib, umuman bolalarning yosh xususiyatlarini psixologiya fani o'rganadi. Kitobxonlik esa uning xulosalarga tayanib, bolalarning kitob o'qishicha, ularning yosh xususiyatlarini qnaday kitoblarni o'qish o'rganishga ta'sir etadi. Shunday qilib maktabgacha yoshdagi bolalarda, umuman bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otishda psixologiyaning o'rni beqiyosdir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta"limning davlat standard. O.,zPFITI. T., 1995.
2. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta"lim pedagogikasi. T.: Ilm,ziyo,2006
3. M.G.Davletshin., Sh.Do'stmuxamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyev. —Yosh davrlari va pedagogi psixologiya|. O'quv qo'llanma. T., 2004-y. 8.2. b.t.
4. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti, T.: 2013-y.
5. J.G'.Yo'ldashev —Interfaol ta'lim sifat kafolati| O'MOI T-2007
6. R.A. Mavlonova va boshqalar —Pedagogik texnologiya| Fan 2008-y.
7. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi,1993.
8. Z.Nishonova, G.Alimova. —Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi|. O'quv qo'llanma. O'zbekiston èzuvchilar uyushmasi Adabièt jamg'armasi.T., 2006-y. 10 b.t.
9. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari", T.: 2013-y